

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TILIM VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi:

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

№ BD-5111200-3.05
BD-5120100-3.02
BD-5120900-3.02

2018 yil "26" 05



MUTOLAA MADANIYATI VA RITORIKA

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha

Ta'lim sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar

Ta'lim yo'nalishlari: 5111200 – O'zbek tili va adabiyoti

5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish
(o'zbek tili)

5120900 – O'zbek-ingliz tarjima nazariyasi
va amaliyoti

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining
2018 yil 14-avgust kuni 06-sonli buyrug'ining 10-ilovasi bilan
fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'naltirish bo'yicha
O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018 yil
26-avgust kuni 05-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab
chiqildi.

Tuzuvchilar:

Z. Xolmanova Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek tilini o'qitish metodikasi kafedrasi professori, f.f.d.
U. Jo'raqulov Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon
kafedrasi dotsenti, f.f.n.

Tag'richilar:

U. Hamdamov - Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

M. Abduraxmonova - O'ZMU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan
(2018 yil 25-avgust kuni 04-sonli bayonnomasi).

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Respublika Birinchi Prezidentining Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil qilish haqidagi farmonida "O'zbek tili
va adabiyotini, uning o'ziga xos xususiyatlarini, ilmiy-nazariy, falsafiy-estetik
asoslarini, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini chuqur o'zlashtirgan, davr
talablari javob beradigan yuksak malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash"
bugungi filolog-mutaxassislar tayyorlash tizimining muhim vazifasi, deya
ta'kidlanadi. Hozirda mutolaa madaniyati doirasida o'rganiladigan asosiy
masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, notiqlik san'ati, ritorika tarixining
muhim bosqichlari borasida tasavvur hosil qilish, ritorikaning shakllanishi,
ritorikalar qo'yiladigan talablar, notiqlikning asosiy shartlari, notiqlik yo'naltirishlari
va maktablari, voizlik san'ati, mumtoz namunalardagi nutq madaniyatiga oid
qarashlar, nutq madaniyati asoslari haqida ma'lumot berish, nutq uslublari, adabiy
til me'yorlariga amal qilish, nutqni maqsadga muvofiq shakllantirish, yozma va
og'zaki nutq ko'nikmalarini talab darajasida egallagan o'zbek tili va adabiyoti
bo'yicha mutaxassislar, ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashi muhim ahamiyat kasb
etmog'ida.

"Mutolaa madaniyati va ritorika" fani ifodali o'qishga o'rganishni, mutolaa
madaniyatining talablari, qonun-qoidalarini o'zlashtirishni, millat hayotida
kechgan jumloiy-tarixiy, ruhiy-ma'naviy, adabiy-estetik jarayonlarni tushunish,
yangi janrlar, obrazlar va uslub poetikasiga xos o'zgarishlarni belgilashni, og'zaki
va yozma nutq me'yorlari borasida muayyan ko'nikma hosil qilishni maqsad
qiladi.

"Mutolaa madaniyati va ritorika" fani "Madaniyatshunoslik", "Adabiyot
nazariyasi", "Mumtoz adabiyot tarixi", "Sotsiologiya", "Psixologiya", "Yozma
nutq me'yorlari", "Davlat tilida ish yuritish", "Hozirgi o'zbek adabiy tili",
"Mutaxassislikka kirish", "Yozma ishlar tashkil etish metodikasi", "Davlat tilida
ish yuritish" fanlari bilan aloqador.

Ushbu fanni o'qitish orqali o'zbek tili va adabiyotini tarixiy va nazariy
poetika, jahon adabiyoti, badiiy matn tahlili aspektida tushunadigan, og'zaki va
yozma nutqni ravon, barmiq, aruz vaznidagi she'rlarni, badiiy matnni ifodali o'qiy
oladigan, nutq madaniyati ko'nikmalarini egallagan, zamonaviy ta'lim
texnologiyalarini chuqur o'zlashtirgan, davr talablari javob beradigan yuksak
malakali ilmiy xodimlar va pedagog kadrlar tayyorlash ko'zda tutiladi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

"Mutolaa madaniyati va ritorika" modulining maqsadi talabalar e'tiborini
jahl qilish mohiyatiga ega bo'lgan nutq yaratish, me'yoriylikka asoslangan og'zaki
va yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish, nutq madaniyati ko'nikmalarini hosil
qilishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalar
belgilangan:

-nutq texnikasini o'rganish;

-mutolaa madaniyati talablarini o'zlashtirish;

- ritorika tarixini o'rganish, g'arb va sharqdaqi notiqlik san'ati taraqqiyoti haqida ma'lumotga ega bo'lish;

-ritorikaning yuzaga kelish sabablari va omillarini, ritorikarning jamiyatdagi o'rni va mavqeyini o'rganish;

-ritorikaning asosiy masalalarini o'zlashtirish;

-nutq madaniyati asoslarini belgilash;

-nutq sifatlarini o'zlashtirish va shu asosda maqsadga mos tarzda ta'sirchan nutq yaratish;

-muomala madaniyatini egallash, muloqot vaziyatlarini to'g'ri baholay olish;

-ritorika va nutq madaniyati, ritor va notiq tushunchalarining umumiy, farqli jihatlari yoritish.

"Nutq madaniyati" fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavriat talabasi:

- ritorika tarixi, notiqlik san'ati, ritorikalar faoliyatini;

-nutq ko'rinishlari, ritorikaning asosiy tushunchalarini;

-nutq madaniyati asoslarini;

-nutq madaniyati, nutq madaniyatining umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini;

-nutq sifatlarini haqidagi muhim ma'lumotlarni;

-nutq madaniyatining shaxs ma'naviy qiyofasini belgilovchi omillardan biri ekanligini bilishi zarur;

-adabiy til me'yorlariga amal qilish;

-rasmiy muloqot madaniyati talablarini anglash;

-nutq sifatlarini o'zlashtirish;

-notiqlikning asosiy talablarini belgilash;

-nutq madaniyati talablariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lishlari zarur;

-til va madaniyat munosabatlarini anglash;

-nutqni adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda namoyon etish;

-nutqni ta'sirchan, auditoriya e'tiborini tortadigan darajada obrazli tarzda ifoda etish malakalarini egallashlari zarur.

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-Modul. Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

1-mavzu. "Mutolaa madaniyati va ritorika" fanining predmeti

Mutolaa san'ati o'zining qadim ildizlariga ega ekanligi, uning manbarati, til va adabiyot material ekanligi, badiiy asar matnining kompozitsion qismlari: so'z, jumla, tovush va matn semantikasi fanning asosiy predmeti bo'lib xizmat qilishi.

2-mavzu. Mutolaa va voizlikning Sharq va G'arb madaniy tatakkurida turgan o'rni

Mutolaa san'ati arabcha "mutolaa" – o'qish, o'qib-o'rganish ma'nolarini anglatishi, voizlikning esa Sharq va G'arbda boshqa-boshqa tushunchalar sifatida talqin qilinishi. Sharq va G'arb madaniyati va notiqlik nazariyasi.

Mutolaa madaniyatining qadim Sharq manbarlari – Shumer, Hind, Xitoy, Eron va turkiy qadim yozma manbarlarda mavjudligi. "Mutolaa madaniyati va ritorika" fani doirasidagi asosiy tushunchalar.

3-mavzu. Ritorika va falsafa

Ritorika va falsafa. Notiqlik va voizlik san'atida falsafiy fikrning muhim o'rin tutishi. G'arb falsafasi, asosan, notiqlik san'ati vositasida ommalashtirilganligi, Sharq islom tafakkurida ham islom va tasavvuf falsafasi voizlik vositasida ilmiy va ommabop tarzda talqin etilganligi.

4-mavzu. Ritorika va estetik

Ritorika mohiyatida estetik mezonlarning muhim konseptual ahamiyatga ega ekanligi. Ritorikada ham estetikadagi kabi nutqning go'zallik tushunchasiga muvofiq nazarida tutilishi. Notiqlik san'atida estetikaning fojaviylik, romantiklik, gahramononalik, sentimentalik singari kategoriyalarining yetakchi o'rin tutishi.

5-mavzu. Ritorika va psixologiya

Ritor yoki voizning psixologik bilimiga ega bo'lish zarurati. Nutq jarayonida psixologik ta'sir vositalaridan foydalanish notiq tayyorlagan matnning yuqori saviyada bo'lishini ta'minlashi. Notiq tomonidan auditoriya tanlashda psixologik bilimning zarurati. Nutq jarayonida notiqning psixologik holatlari muhim ahamiyatga egaligi.

6-mavzu. Ritorika va retsepsiya munosabati

Retsepsiyaning ikki qatlamli hodisa ekanligi. Birinchisi notiqning badiiy-falsafiy va real hayotiy manbarlardan o'zi uchun muhim fikr, voqea-hodisa va detallarni retsepsion qabul qilishi. Ritor va auditoriya o'rtasidagi psixologik ta'sir jarayoni. Bunda psixologiyaga doir ilmiy tushuncha va xulosalarning vosita sifatida xizmat qilishi.

Badiiy asarni o'qish, qabul qilish va estetik o'zlashtirishning nazariy kriteriyalari. Retseption estetik alohida yo'nalish ekanligi. Retseptiya va gemenevtika. Retseptiya va psixologizm. Retseptiya va muallif biografiyasi.

7-mavzu. Ritorikaning teatr va kino san'ati bilan bog'liqligi

Ritorika hamda voizlikning teatr va kino singari qorishiq san'atlar bilan bevosita bog'liqligi. Teatr asarlari mahnda epidektik, siyosiy va sud notiqigiga doir ritorika shakllarining munazam uchrashi. Shuningdek, teatr va kino san'ati personalari nutqining deklarativ ifodaga ega bo'lishi shartligi.

8-mavzu. Ritorika va adabiyotning o'zaro munosabati

Ritorikaning adabiyot bilan bevosita bog'liqligi, unda badiiy adabiyotga xos poetik uslub va badiiy san'at shakllarining izchil qo'llanilishi. Ritorikada ham adabiyotdagi kabi obrazli tafakkurning yetakchi ekanligi. Qadim Yunon ritorika fanining bevosita epos va dramalar tahlili asosida shakllanganligi. Sharq voizligi mohiyatida ham Sharq mumtoz badiiy tafakkuri turishi.

9-mavzu. Ritorika va zamonaviy adabiyot

Ritorika, mutolaa, zamonaviy adabiyot rivojini ta'minlovchi, o'quvchi va badiiy asar munosabatini mustahkamlovchi vosita ekanligi, badiiy asarni o'qish, tushunish, tushuntirish jarayonida ritorika mezonlarining muhim ahamiyat kasb etishi. Zamonaviy epik, dramatik, lirik janrlarga xos semantik-struktural mohiyatning bevosita mutolaa san'ati va ritorika bilan bog'liqligi. Adabiy turlar va janrlarda mutolaa madaniyati.

10-mavzu. Lirik janrlarda marom va ohang

Lirik janrlar asosida marom va ohang turishi, voiz nutqida han marom va ohang ishtirokiga alohida e'tibor qaratilishi. Ritor tanlagan mavzuga qarab lirik janrlarga xos tez, sekin, yuqori, yoki past ohanglarning o'rin almashib turishi. She'r vaznlariga xos maromning nuq material semantikasiga bevosita ta'sir etishi. Ifodali o'qish va mutolaa san'ati. Aruz alibosi. Aruz vazni nazariyasi. Aruz vaznidagi lirik asarlarni ifodali o'qish.

Barmoq va sarbast she'rarni ifodali o'qish muammolari. Badiiy asar mutolaasi. Badiiy asar mutolaasiga qo'yiladigan talablar.

11-mavzu. Epik ijodda nutq va mutolaa masalasi

Epik ijod namunalarning mutolaa san'ati bilan musharak holatda yashlashi qonuniyligi. Mutolaa jarayonida notiqlikka xos marom, ohang, urg'u, talaffuz va

ifodaning muhim retseptiv vazifa bajarishi. Epik ijodda ham obrazlar, personajlar, ifoda shakllari, pafos bilan bog'liq nuq ko'rinishlari uchrashi.

Epik asarlarda badiiy nuq masalasi. Qahramon etikasi va notiqlik munosabati haqida. Personaj nuqida muallif axloqiy qarashlarining aks etishi. Epik asarlarni ifodali o'qish. Liro-epik asarlarni mutolaa qilishda ritmning o'rni. Epik asarlarni mutolaa qilishda ritmli nasr – sa'jning o'rni. Sa'ji o'qish – notiqlik madaniyatini rivojlantiruvchi muhim omil sifatida.

12-mavzu. Dramada ritm va ohang

Dramatik asarda ritm va ohangning yetakchi mavqeda turishi. Dramatik asardagi muallif nuq asosiy ritm va ohang regulyatori vazifasini bajarishi. Qahramonlararo dialogda monolog va ichki nuq talqinida notiqlik san'atiga xos marom o'zgarishlarining muqarrarligi. Shu nuqlay nazardan voizlik va dramatik janrlarning mustahkam aloqadorligi. Dramatik asarlarda notiqlik va deklarativ bayoning ahamiyati.

13-mavzu. Mutolaa jarayonida jumla, so'z va tovushning vazifasi

Mutolaa jarayonida jumla, so'z va tovushning vazifasi bir nechta bosqichlardan iborat ekanligi. Birinchi bosqichning psixologik funksiyaga yo'naltirilishi. Bunda jumla va so'zning psixologik ta'sir kuchiga ega bo'lishi, ikkinchidan, ayni matn bo'laklarining semantik-struktural vazifalarni bajarishi. Uchinchidan, obraz mohiyatini ochishda va tushunib yetishda jumla, so'z va tovushning zarur retseptiv komponent vazifasini bajarishi.

2-modul. Ritorika va nuq madaniyati

(II kurs, I semestr)

14-mavzu. "Ritorika va nuq madaniyati" modulining maqsadi, vazifalari

Ritorika – notiqlik san'ati, mulqot o'qobi masalalari haqidagi fan sifatida. Ritorikaning maqsadi nuq ravon, omma oldida fikrlarini erkin, mazmunli, ta'sirchan ifodalay oladigan, og'zaki va yozma nuq ko'nikmalarini mukammal egallagan, sinxron holatda nuq yaratish kompetensiyasiga ega bo'lgan mutaxassis kadrlarni shakllantirish, nuq madaniyatini egallashdan iborat ekanligi. Nuq madaniyati va muomala jarayoni. Nuq madaniyati va notiqlik.

15-mavzu. Ritorika tarixi

Ritorikaning shakllanish tarixi. Notiqliklikning yuzga kelish omillari.

Yunon notiqdigi. Qadimgi Gretsiyada notiqdar faoliyati. Xalq yig'inlarining notiqlik san'atini shakllantirishdagi o'rni. Jijimiy-siyosiy masalalarda omma e'tiborini tortishning muhimligi. Fikr va g'oyalarni to'g'ri va ta'sirchan ifodalashning ahamiyati. Huquq tizimida ritorikaning o'rni. Yunon ritorlarining og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini egallashdagi faoliyatlari. Falsafa maktablarining ritorikaga munosabati.

Aristotelning notiqlik san'ati taraqqiyotidagi xizmatlari.
Platon va Suqrot asarlarida notiqlik masalasi talqini. Aristotelning "Poetika" va "Ritorika" asarlari. Ritorika tushunchasi asosida "nutq", "notiqlik" degan ma'no yotishi, bunda, asosan, nutqdagi marom e'tiborga olinishi. Va'z va voziqlarning esa sharqona pand-nasihahat – didaktikaga asoslanishi.

Rim notiqlik san'ati. Rim notiqlik maktabining o'ziga xosliklari. Siyosonning ritorika haqidagi qarashlari. Notiqning vazifalari.

16-mavzu. Ritorika ilidzlarining sharq ilmidagi taraqqiyoti. Voziqlik san'ati

Sharq notiqdigi haqida ma'lumot. Sharq voziqlarining qarashlari. Nutq madaniyatining keyingi muhim manbalari – mifologik axborotlar ekanligi. Qadim folklor manbalari – epos, xalq qissalari, xalq hikoyalari, eraklar va qo'shiqlarda notiqlik, nutq masalasi.

17-mavzu. Mumtoz manbalarda notiqlik san'atiga doir qarashlar

Qadim turkiy bitiklarda notiqlik va mulohaza madaniyatiga doir qarashlar.

Arab va forsiy yozma manbalarda notiqlik masalalarining yoritilishi. "Ilm ul-bayon", "Ilm ul-ina'oniy", "Ilm ul-badi'" tushunchalari va notiqlik nazariyasi. Forobiy, Ibn Sino, M.Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Yassaviy, Navoiy va Bobur asarlarida notiqlik nazariyasi masalalari talqini. Mumtoz manbalarda notiqlik san'ati va notiqdar haqidagi ma'lumotlar tahlili.

18-mavzu. Ritorikaning mazmun-mundarijasi

Invensiya (nima haqida gapirishni bilish), *kompozitsiya* (aytilmoqchi bo'lgan fikrni tartiblash), *elokutsiya* (fikrga mos shakl tanlash), *memorio* (jarayonni xotirada saqlash), *aksio* (talaffuz qilish). Nutq madaniyati mumtoz notiqlik san'atining davomi va takomillashgan ko'rinishi sifatida. Nutq madaniyatida notiqlik san'ati bosqichlari: tayyorgarlik (chiqish so'zi ustida ishlash, material to'plash, mavzuni chuqur o'zlashtirish), materialni joylashtirish (nutqni reja asosida tartiblash), yozma ma'mni og'zaki nutqda ifodalash.

Ritorikaning dastavval, og'zaki nutq ko'nikmasi sifatida shakllanganligi. "Ritorika", "Nutq madaniyati" tushunchalarining ham og'zaki, ham yozma nutq uchun amali qilishi.

19-mavzu. Notiqlik san'atini egallash omillari

Tilni o'rganish, o'rgatish organi nutq madaniyatiga ega bo'lish. Notiqlikda taqlidning o'rni. Mulohazaning muntazam ravishda amalga oshirilishi.

Badiiy matn, she'rni ifodalash o'qish. Nutqni nazorat qilish. Yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish. Notiq va auditoriya. Notiqning tashqi ko'rinishi va ichki olami. Auditoriya bilan mulqot o'rnatish.

Nutq madaniyati asoslari. Nutq madaniyatini belgilovchi xususiyatlar.

20-mavzu. Nutqning kommunikativ belgilari

Nutq sifatlari: nutqning to'g'riligi, softligi, aniqdigi, mantiqiydigi, maqsadga muvofiqdigi, ta'sirchanligi.

Og'zaki nutq xususiyatlari. To'g'ri talaffuz me'yori. O'zbek tilida urg'u. Olimma so'zlar talaffuzi. Og'zaki ma'ruza qilish bosqichlari: mavzu tahlil, aniq maqsad qo'yish, material to'plash, g'ayd qilish. Nutqda xalqona so'z va iboralar, sheva so'zlari, ko'chma ma'nodagi leksik birliklarning faol qo'llanishi. Soddah, to'liqsiz gaplarning ko'p kuzatilishi. Ergash gaplarga nisbatan bog'langan qo'shma gaplarning faol ishlatilishi. Fikr ifodalashning verbal va nonverbal vositalari. Mimika va yuz ifodasi. Mulqot xulqi.

21-mavzu. Yozma nutq xususiyatlari

Yozma nutqning og'zaki nutqni takomillashtirishdagi o'rni. Umumxalq tili va adabiy tili. Adabiy tili – nutq madaniyatining asosi. Adabiy tili umumxalq tilining me'yorlashgan ko'rinishi sifatida. Adabiy tilning ma'buriy dgi va milliy tilning yuqori ko'rinishi sifatidagi ahamiyati. Hozirgi o'zbek adabiy tilining zamonaviy holati va dolzarb muammolari. Imlo me'yori.

Yozma nutqqa oldindan hozirlanish xosligi hamda unda tahrir imkoniyatining mavjudligi. Ma'mni tahrirlash. Matnning mantiqiy-fikriy tahlili. Xotira mashqi.

22-mavzu. Yozma nutq me'yori

Yozma nutqning nisbatan to'g'ri va aniqdigi. Me'yoriylik ko'rinishlari: umumiy me'yori, xususiy me'yori; orfoqrafik, orfoepik me'yori.

Imlo me'yori. Imlo qoidalarini o'zlashtirish.

Leksik me'yori. Sinonim, omonim, antonim, paronimlarning qo'llanishi. **Grammatik me'yori.** Grammatik me'yorga amal qilishning fikr ifodalashdagi o'rni. Sintaktik me'yorlarning xususiyatlari. Sintaktik konstruksiyalar va ularning turli adabiy tili uslublaridagi ko'rinishlari. Gapdagi so'zlar tartibi. Gapni to'g'ri tuzish.

23-mavzu. Nutq uslublaridan to'g'ri foydalanish

Uslubiy me'yorlar. Uslubiy nuqsonlar. Uslubiy xatolarni bartaraf etish omillari. Me'yoriylikka amal qilmashlik. Me'yoriylikdan maqsadli chekinish. Lug'atning nutq madaniyati bo'yicha universal manba sifatidagi ahamiyati.

So'zlashuv uslub. Kitobiy uslub. Tilning tasviriy vositalari. Ko'chmalar: metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, ironiyaning nutq emosiyasini tashkil etishdagi o'rni. Ekspressiv-emosional leksika. Sintaktik figuralar: inversiya, ellipsis, gradatsiya, antiteza, ritorik so'roq, takrorlarning nutq ta'sirchanligini ta'minlashdagi ahamiyati.

Rasmiy mulogot madaniyati. Ish yuritish notiqiligi predmeti. Rasmiy mulogot madaniyatining belgilovchi asoslari. Rasmiy mulogot xulqining umumiy qonuniyatlari. Milliy mulogot xulqi xususiyatlari. Dialog – rasmiy mulogot ko'rinishi sifatida. Devonxonaga qabulxonaga xos mulogot madaniyati.

24-mavzu. Nutq madaniyatini shakllantirishda mutolalaning o'rni

Badiiy uslubning tasviriy vositalardan foydalanish imkoniyati kengligi. Badiiy matnning tafakkur, dunyogorash rivojidagi ahamiyati. Badiiy matndagi ko'chmalar, tilning tasviriy vositalar, obrazlilikning olan manzarasini ta'sirchan ifodalashdagi o'rni. Mutolaa, she'r yod olish, matn tahlili o'g'zaki nutqni rivojlantirish omili sifatida.

25-mavzu. Ritorika va ta'lim jarayoni

Nutqning kasbiy xoslanishi. Ritorika mazmuni, maqsadining ta'lim jarayonidagi faoliyat bilan uyg'unlashirilishi. Jamoa oldida nutq so'zlash. Notiqlik mahoratini kasbiy malaka hamda ko'nikmalar bilan muvofiqlashtirish zaruriyati.

26-mavzu. Pedagog uurtqi madaniyati

Nutq jarayonida talabalar saviyasi, yoshi, mulogot vaziyatini hisobga olish. Umumta'lim maktablari, akademik litseylar, oliy ta'limda og'zaki va yozma nutq madaniyatiga e'tibor masalasi. Husnixat makkasiga ega bo'lish. Yozma nutqni shakllantirish va takomillashtirishda diktant, bayon, insho kabi yozma ishlarining o'rni.

27-mavzu. Nutq madaniyatini shakllantirishda qo'llanadigan metodlar. Og'zaki nutqni o'stirish usullari. Yozma nutqni takomillashtirish metodlari. Nutqni rivojlantirishdagi an'anaviy tajriba va zamonaviy ta'lim texnologiyalari.

IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

“Nutq madaniyati va ritorika” fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda talabalar munimoz hamda zamonaviy o'zbek adabiyotiga doir badiiy asarni tahlili va talqin qilishga, matni ifodalari o'qish, so'zlash, yod olishga, og'zaki va yozma nutq me'yorlarini o'zlashtirishga, nutqni aniq, to'g'ri, ravon ifodalay olishga yo'naltiriladi. Talabalar mutolaa, ritorika va nutq madaniyatiga oid egallangan nazariy ma'lumotlarni mustahkamlaydilar. Matnlarni ifodalari o'qish, muayyan mavzuda matn tuzish, nutq madaniyati talablariga amal qilgan holda so'zlash va yozish ko'nikmalarini shakllantiradilar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Abdulla Qodiriy “O'tkan kunlar” romani mutolaasi.
2. Abdulhamid Cho'lpon she'rlarini ifodalari o'qish.
3. Hamzaning “Paranji sirlari” dramasi rollariga bo'lib o'qish.
4. Fitratning “Abulfayxon” tragediyasida fojiaiy pafos.
5. “Kalyan Maxzunning xotira daftariidan” asarida komik-satirik ruh.
6. “Shum bola”da qahramon nutqi.
7. Oybekning “Davrim jarohati” poemasi ifodalari o'qish.
8. Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug'bek” asari mutolaasi.
9. Hamid Olimjonning erak-dostonlarida xalqona ritm.
10. Mirtening lirik she'rlarida poetik marom.
11. Odil Yodqubovning “Ko'ha dunyo” romani mutolaasi.
12. Pirmuqol Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida nutq shakllari.
13. O'ktir Hoshimov va Shukur Xolmitzayev hikoyalarining ritmik nuqoyasasi.
14. Erkin Vohidov va Abdulla Oripov dramatik dostonlari.
15. Tog'ay Murod qissalarida ritmining o'ziga xosligi.
16. Ritorika va nutq madaniyatining ijtimoiy sohalaridagi ahamiyati.
17. Ritorikaning shakllanish tarixi.
18. Ritorikaning ma'lumotni ta'sirchan yetkazishdagi o'rni.
19. Nutq madaniyatini egallashda qo'llanadigan talabalar.
20. Ritorika va tafazzul me'yorlari.
21. Nutq madaniyati va imlo me'yorlari.
22. Nutqning kommunikativ belgilari.
23. Nutq sifatleri.
24. Nutq ta'sirchanligini ta'minlovchi vositalar.
25. Pedagog nutqiga qo'llanadigan talabalar.
26. Umumiy ta'limda nutq madaniyatiga e'tibor masalasi.
27. O'rta maxsus va kasb-hunar ta'limida nutq madaniyati.

- 28 Oliy ta'limda nutq madaniyatini egallash.
29 Matn ustida ishlashning amaliy ahamiyati.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Talabalar ma'ruza mashg'ulotlarida olgan bilim va egallagan ko'nikmalarini matn ustida ishlash, ifodalash o'qish, nutq madaniyat talablariga muvofiq ravishda so'zlash, taqdimot qilish asosida mustaqil ishlaydilar. Bunga jamoa tarzida, individual yondashish hamda mustaqil ishlash yo'li bilan erishiladi. Mustaqil ishlashda darslik, o'quv qo'llanmalar, uslubiy qo'llanma, tarqatma va ko'rgazmali materiallar, internet ma'lumotlarining ahamiyati kattadir.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

"Muloqat madaniyati va ritorika" fanini o'rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustakamlash va nutq madaniyatini asoslari borasida ko'nikma hosil qilish uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, fan o'qituvchilari rahbarligida mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo'shimcha adabiyotlarni o'rganib, internet saytlaridan foydalanib, referatlar va ilmiy ma'ruzalar tayyorlaydilar, amaliy mashg'ulot mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko'rgazmali qurollar va slaydlarni namoyish etadilar.

Mustaqil ishini tayyorlashda nutq madaniyatiga doir fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- * darslik va o'quv qo'llanmalari bo'yicha fan mavzularini o'rganish;
- * tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- * kompyuter texnologiyalari tizimlari bilan ishlash;
- * maxsus adabiyotlar bo'yicha referat va taqdimotlar tayyorlash;
- * o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liq bo'lgan adabiyotlar, monografiya va ilmiy to'plamlarni e'lhuqur o'rganish;
- * interaktiv va muammoni o'qitish jarayonida faol qatnashish.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

1. Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik.
2. Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasi atrofidagi munozaralar.
3. Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi haqida bahs.
4. Zulfiya lirikasida tabiiy tasvirni ifodasi.
5. Said Ahmadning "O'foboyim", "Qorako'z mainim" hikoyalari muhokamasi.
6. Odli Yoqubovning "Ko'mina dunyo" asarini tahlil qilish.
7. Tog'ay Murodning "Oydingda yurgan odamlar" qissasida marosimlar tasviri.
8. Hozirgi o'zbek adabiyotida modern she'riyati yaratish yo'lidagi izlanishlar.
9. Shukur Xolmirzayev romanlarida inson psixologiyasi talqini.
10. Rauf Parfning "Sabr daraxti" asarini tahlil qilish.
11. Istiqbol davri o'zbek she'r iyatiga xos xususiyatlar.

12. Nutq madaniyati talablari.
 13. Nutq sifatlar.
 14. Yulnon notiqiligi.
 15. Rim notiqiligining asosiy xususiyatlari.
 16. Sharqda voizlik san'ati taraqqiyoti.
 17. Notiqlik – san'at sifatida.
 18. Nutq texnikasini o'rganishda kompyuter texnologiyalarining o'rni.
 19. Orlfoerik me'yorlarni o'rganishda texnik vositalarning o'rni.
- Zohir Mazkur** ro'yxatdagi mavzulardan mustaqil ta'lim uchun ajratilgan so'zlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar:

1. Islom Karimov. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. -T.: O'zbekiston, 2009.
2. Bergmatov Э., Кунягирова Р., Тожиев Ё. Ўзбек нутқи маданияти ва услубиёт асослари. -Тошкент: "Ўқитувчи", 1992.
3. Махмудов Н. Ўқитувчининг нутқ маданияти. -Тошкент: "Ўқитувчи", 2010.
4. Махмудов Н., Рафиев А., Йўлдошев И. Нутқ маданияти ва давлат тилида иш юритиши. -Тошкент: "Ўқитон", 2011.
5. Еназаров Т. Nutq madaniyati. -To'shkent, 2017.

Qo'shimcha adabiyotlar:

6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -To'shkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.
7. Mirziyoyev Sh.M. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli fatmoni. 07.02.2017. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil, 28-(6722) soni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil, 21-aprel.
9. Bergmatov Э., Маматов А. Норма назарияси. -Тошкент: "Фан", 2003.
10. Jo'taqulov U. Nazariy roetika masalalari. – T.: G'ulom, 2015.
11. Yaxshidur achchiq haqiqat. – Toshkent: Nur, 1992.
12. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2006.
13. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – Toshkent: "O'zbekiston", 2008. – 536 b.
14. Normatov U. Talakkur yog'dusi. -To'shkent: "Fikt-media", 2005.

15. Lunsford, Andrea A., John J. Everything's an Argument. Ruszkiewicz, and Keith Walters. 3rd Ed. New Bedford books, 2013
16. Gramota.ru www.gramota.ru
17. Maqsud Shayxzoda. Asarlar. 6 tomlik. – Toshkent: G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1969-1974.
18. Mirtamir. Asarlar. To'rt jildlik. – Toshkent: G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980-83.
19. Muhtar A. Asarlar. To'rt jildlik. – Toshkent: G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980-83.
20. Oybek. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. – Toshkent: "Fan", 1990-1995.
21. Olimjon H. Mukammal asarlar to'plami. 5 jildlik. – Toshkent: "Fan", 1975-1994.
22. Odil Yodqubov asarlari: Saylamma. Uch tomlik. – Toshkent: G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985-1987. Diyonat. – Toshkent: G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.
23. Orifov Abdulla. To'liq asarlar to'plami. To'rt jildlik. – Toshkent: G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.
24. Primqul Qodirov asarlari: Saylamma. Uch jildlik. – Toshkent: G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987-1988. Avlodlar dovon. – Toshkent: G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
25. Parfi Rauf. Sabr daraxti. – Toshkent: G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.
26. Rustamov A. Сўз хуёсида сўз. -Тошкент, 1989.
23. Said Ahmad asarlari: Saylamma. Uch tomlik. – Toshkent: G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980-1981. Jimjilik. – Toshkent: "G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 1989.
28. Tog'ay Murod asarlari: Ot kisi magan oqshom. Qissalar. – Toshkent: "Sharq", 1994. Oltindan qolgan dalalar. Roman. – Toshkent: "Sharq", 1994. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi. Roman. – Toshkent: "Sharq", 2001.
29. Xolmirqayev Shukur. Uch jildlik. – Toshkent: "Sharq", 2003.
30. Shavkat Rahmon. Saylamma. – Toshkent: "Sharq", 1997.
31. Erkin Volidov asarlari: Saylamma. Ikki tomlik. – Toshkent: G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. Izitob. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
33. Qahhor Abdulla. Asarlar. Besh jildlik. – Toshkent: G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987-1989.
34. Киличев Э. Нутк маданияти ва услубийт асослари. – "Бухоро", 2003.
35. Qutopov va boshq. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: "Fan", 2010.
36. Qosimov B. Izlay-izlay to'rganim. – Toshkent: "Adabiyot va san'at", 1983.
37. Qutopov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: "Fan", 2010.
38. G'afur G'ulom. Asarlar. 12 tomlik. – Toshkent: Fan, 1970-1978.
39. Hoshimov O'ltir. Saylamma. Ikki jildlik. – Toshkent: "Sharq", 1993.
40. Hamdam U. Yangilanish ehtiyoji. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2007.

41. Hamdam U. Yangi o'zbek she'riyati. – Toshkent, 2012.

Интернет сайтлари:

1. www.literature.uz
2. www.ziyouz.net.uz
3. www.dalilib.uz
4. www.ziyouz.com
5. www.turonline.uz